Isloh va Izzat

Saba Dar on
Surgery & Therapy Medical Centre



Yordamdan Natijaga

Homiylar uchun hisobot

«Isloh va Izzat» 2026-yil III chorak · iyul - sentyabr

Hurmatli homiylar, Assalomu alaykum!

2025-yil noyabr oyidan buyon «Isloh va Izzat» dasturi moddiy imkoniyati yetmagani sababli zarur davolanishdan foydalana olmayotgan insonlarga manzilli tibbiy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Maqsadimiz — davolanishni yakuniga yetkazish, salomatlikni tiklash va insonni mustaqil, to‘laqonli hayotga qaytarish. Dasturning maqsadlari va yordam ko‘rsatish tartibi haqida 3-bo‘limda batafsil ma’lumot berilgan.

2026-yil iyul - sentyabr oylarida 23 nafar bemorga yordam ko‘rsatildi: ulardan 22 nafari davolanishni yakunlab, to‘liq sog‘aydi, bir bemorning operatsiyasi esa kardiolog xulosasiga ko‘ra bekor qilindi.

Davolash natijasida eshitish va burundan nafas olish tiklandi, siyishdagi qiyinchiliklar bartaraf etildi, o‘t pufagi olib tashlanganidan keyin og‘riq yo‘qoldi, tuxumdon kistasi olib tashlanganidan so‘ng esa og‘riq kamaydi. Yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarning ahvoli barqarorlashib, ular mehnat faoliyatiga qaytdi. Dasturning tibbiy va ijtimoiy samarasi aynan shunda — hayot uchun muhim funksiyalarni tiklash va insonni odatiy hayotiga qaytarish.

III chorakda ko‘rsatilgan tibbiy yordamning umumiy qiymati 414,3 mln so‘mni tashkil etdi. Shundan 321,0 mln so‘m (77,5%) homiylar, 80,1 mln so‘m (19,3%) «Saba Darmon» klinikasi, 13,2 mln so‘m (3,2%) esa bemorlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Birgalikdagi moliyalashtirish tufayli homiylikning har bir so‘mi hisobiga jami 1,29 so‘mlik tibbiy yordam ko‘rsatildi. Homiylar va klinika yordam qiymatining 96,8% ini qoplab, oilalarning moliyaviy yukini sezilarli darajada yengillashtirdi.

Dastur boshlanganidan buyon 67 nafar bemorga yordam ko‘rsatildi, ulardan 65 nafari to‘liq sog‘aydi . Tibbiy yordamning umumiy qiymati 1 320,9 mln so‘mga yetdi, shundan 951,6 mln so‘mi homiylar tomonidan ta’minlandi.

Sizning yordamingiz tufayli davolanish xarajatlarini mustaqil qoplay olmagan insonlar sog‘lig‘ini tiklash va to‘laqonli hayotga qaytish imkoniga ega bo‘lmoqda. Ishonchingizni chin dildan qadrlaymiz va uni dasturga qabul qilingan har bir bemorning davolanishi uchun mas’uliyat deb bilamiz.

Ishonchingiz va qo‘llab-quvvatlashingiz uchun samimiy minnatdorlik bildirib,



Mo‘minov Salohiddin Amonovich

«Saba Darmon» klinikasi direktori

2026-yil oktyabr


1 Asosiy natijalar

23
III chorakda yordam olgan bemorlar

22
davolanishni yakunlab, to‘liq sog‘ayganlar

1,29
har bir homiylik so‘miga ko‘rsatilgan tibbiy yordam

III chorakdagi tibbiy yordam qiymati **414,3 mln so‘m**



Homiylar 321,0 mln so‘m 77,5% · Klinika 80,1 mln so‘m 19,3% · Bemorlar 13,2 mln so‘m 3,2%

KO‘RSATKICH	2026-YIL III CHORAK	DASTUR BOSHIDAN BUYON
Davolangan bemorlar soni	23	67
To‘liq sog‘ayganlar	22	65
Tibbiy yordam qiymati, mln so‘m	414,3	1 320,9
Homiylar hissasi , mln so‘m	321,0	951,6
Klinika hissasi , mln so‘m	80,1	252,9
Bemorlar hissasi , mln so‘m	13,2	116,3

2026-yil III choragida 321,0 mln so‘mlik homiylik yordami umumiy qiymati 414,3 mln so‘m bo‘lgan davolashni yakuniga yetkazish imkonini berdi. 22 nafar bemor to‘liq sog‘aydi . Dastur boshlanganidan buyon 67 nafar bemorga yordam ko‘rsatildi, homiylar ajratgan har 1 so‘m hisobiga 1,39 so‘mlik yakuniga yetkazilgan tibbiy yordam ta’minlandi.

2 Dastur natijalari va samaradorligi

2.1 Tibbiy yo‘nalishlar

III chorakda bemorlar soni va tibbiy yordam qiymatining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti. Jadvaldagi barcha pul ko‘rsatkichlari mln so‘mda keltirilgan.

YO‘NALISH	SONI	QIYMATI	KLINIKA	HOMIYLAR	BEMORLAR
Otorinolaringologiya	16	298,9	59,8	225,9	13,2
Jarrohlik	3	63,8	10,0	53,9	0,0
Kardiologiya	2	16,0	3,2	12,8	0,0
Urologiya	1	17,4	3,5	14,0	0,0
Ginekologiya	1	18,1	3,6	14,5	0,0
Jami	**23**	**414,3**	**80,1**	**321,0**	**13,2**

III chorakda 22 nafar bemor davolanishni yakunlab, to‘liq sog‘aydi . Asosiy yo‘nalish otorinolaringologiya bo‘ldi: 16 nafar bemor yoki ishtirokchilarning 69,6% i hamda yordam umumiy qiymatining 72,1% i ushbu yo‘nalishga to‘g‘ri keldi.

O‘rta quloqning og‘ir kasalliklari, jumladan xolesteatoma, eshitish suyakchalarining yemirilishi va eshitishning jiddiy pasayishini davolash eshitish funksiyasini tiklash imkonini berdi. Shuningdek, quloqdagi poliplarni tozalash orqali Saraton kasalligining oldi olindi. Adenoidlar kattalashishi, burun va burun yondosh bo‘shliqlari kasalliklari bo‘yicha operatsiyalar bolalar va kattalarga erkinroq nafas olishga yordam berdi. Bemorlar uchun bu suhbatdoshini yaxshiroq eshitish, muloqot qilish va kundalik hayotda o‘zini ishonchliroq his etish demakdir.

Boshqa yo‘nalishlardagi yordam o‘t-tosh kasalligi bo‘yicha ikkita operatsiya, oshqozonning bo‘ylama rezeksiyasi, siydik pufagi bo‘yni torayishini bartaraf etish, tuxumdon kistasini olib tashlash hamda yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan ikki bemorni davolashni qamrab oldi.

O‘t pufagi olib tashlanganidan so‘ng og‘riq manbai bartaraf etildi; urologik operatsiya normal siyishni tikladi, kistani olib tashlash esa og‘riq va og‘irlik hissini kamaytirdi. Bariatrik operatsiya semizlikni davolashning muhim bosqichi bo‘ldi. Yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarning ahvoli barqarorlashib, ular mehnat faoliyatiga qaytdi.

Shu tariqa, homiylar yordami muayyan tibbiy muammolarni hal etish, organizmning muhim funksiyalarini tiklash va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

2.2 Yosh guruhlari

Yordam bolalar, mehnatga layoqatli yoshdagi kattalar va keksa bemorlarni qamrab oldi. Taqsimotga ro‘yxatga olingan barcha 23 ta holat kiritilgan.

7
1–17 yoshdagi bemorlar
33,9% qiymat ulushi · 140,6 mln so‘m

10
18–40 yoshdagi bemorlar
45,9% qiymat ulushi · 190,3 mln so‘m

4
41–60 yoshdagi bemorlar
11,9% qiymat ulushi · 49,4 mln so‘m

2
60 yoshdan katta bemorlar
8,2% qiymat ulushi · 34,0 mln so‘m

YOSH	BEMORLAR	QIYMATI , MLN SO‘M	UMUMIY QIYMATDAGI ULUSHI
1–17 yosh	7	140,6	33,9%
18–40 yosh	10	190,3	45,9%
41–60 yosh	4	49,4	11,9%
60 yoshdan katta	2	34,0	8,2%
Jami	**23**	**414,3**	**100%**

Bolalar ro‘yxatga olingan bemorlarning 30,4% ini tashkil etdi; ularga ko‘rsatilgan yordam qiymati 140,6 mln so‘m bo‘ldi. 18–40 yosh guruhiga bemorlarning 43,5% i va 190,3 mln so‘mlik yordam to‘g‘ri keldi. 40 yoshdan katta bemorlarga yordam qiymati 83,4 mln so‘mni tashkil etdi.

> *Shu tariqa, dastur hayotning turli bosqichlarida muhim bo‘lgan vazifalarni hal etishga yordam beradi: bolalarga — rivojlanish, kattalarga — ishlash va oilasini qo‘llab-quvvatlash, yoshi ulug‘ bemorlarga esa mustaqilligi va hayot sifatini saqlab qolish imkonini beradi.*

2.3 Moliyalashtirish va birgalikdagi hissa

321,0


mln so‘m — homiylar hissasi

→

Har bir homiylik so‘miga 1,29 so‘m

414,3

mln so‘m — jami yordam



MANBA	III CHORAK , MLN SO‘M	ULUSHI
Homiylar	321,0	77,5%
Klinika	80,1	19,3%
Bemorlar	13,2	3,2%
Jami	**414,3**	**100%**

Homiylar ko‘magi tufayli davolanish xarajatlarini mustaqil qoplay olmagan insonlar davolanish imkoniga ega bo‘ldi. III chorakda homiylar va klinika tibbiy yordam qiymatining 96,8% ini qoplab, oilalarning moliyaviy yukini sezilarli darajada yengillashtirdi.

> *Siz ajratgan 321,0 mln so‘mlik hissa bilan yordamning umumiy hajmi 414,3 mln so‘mni , ya’ni har bir homiylik so‘miga 1,29 so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘makning eng muhim natijasi — davolanishni yakunlab, to‘liq sog‘aygan 22 nafar bemor.*

2.4. Tibbiy natija va umumiy yakun

KO‘RSATKICH	2026-YIL III CHORAK	DASTUR BOSHIDAN BUYON
Homiylikning har 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan yordam qiymati	1,29 so‘m = 414,3 / 321,0	1,39 so‘m
Homiylar va klinika tomonidan qoplangan ulush	96,8% = (321,0+80,1) / 414,3	91,2%
Bir bemorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha homiylik hissasi	14,0 mln so‘m	14,2 mln so‘m
Bir bemorga ko‘rsatilgan yordamning o‘rtacha qiymati	18,0 mln so‘m	19,7 mln so‘m

Dasturning eng muhim natijasi — bemorlar sog‘lig‘ining tiklanishi va hayotining yaxshilanishi. III chorakda 321,0 mln so‘mlik homiylik ko‘magi klinika va bemorlar hissasi bilan birgalikda 414,3 mln so‘mlik tibbiy yordam ko‘rsatish imkonini berdi. 22 nafar bemor davolanishni yakunlab, to‘liq sog‘aydi. Homiylikning har bir so‘mi hisobiga 1,29 so‘mlik tibbiy yordam ta’minlandi. Homiylar va klinika uning 96,8% ini qoplab, ehtiyojmand oilalarga davolanish imkonini yaratdi.

Dastur boshlanganidan buyon 67 nafar bemorga yordam ko‘rsatildi, 65 nafarining sog‘lig‘i va organizm funksiyalari to‘liq tiklandi . Homiylarning 951,6 mln so‘mlik hissasi va birgalikdagi moliyalashtirish tufayli yordamning umumiy qiymati 1 320,9 mln so‘mga yetdi. Homiylikning har bir so‘mi hisobiga 1,39 so‘mlik tibbiy yordam ta’minlandi, homiylar va klinika esa uning 91,2% ini qopladi.

> *Shunday qilib, sizning ko‘magingiz moliyaviy to‘siqni bartaraf etib, aniq tibbiy va ijtimoiy natijaga aylanadi: insonlar yana eshitadi, erkinroq nafas oladi, og‘riqdan xalos bo‘ladi va faol hayotga qaytadi.*

3. «Isloh va Izzat» dasturi haqida

«Isloh va Izzat» odamlarga zarur bo‘lgan, ammo ular xarajatini qoplay olmaydigan sifatli davolanishdan foydalanishga yordam beradi. Biz yordam inson hayotini sezilarli o‘zgartira oladigan holatlarni tanlaymiz: eshitishni qaytarish, nafas olishni tiklash, og‘riqdan xalos etish, yana ishlash va o‘ziga g‘amxo‘rlik qilishga ko‘maklashish.

Hayotni tubdan o‘zgartiruvchi yordam deganda aynan shuni tushunamiz — davolanish natijasida inson kasallik tufayli yo‘qotgan imkoniyatlariga yana ega bo‘ladi. Vazifamiz — bunday davolashni tashkil etish, bemorni davolanish yakunigacha qo‘llab-quvvatlab borish va erishilgan natijani tasdiqlash.

Biz hal etayotgan muammo

Mablag‘i yo‘q inson uchun kasallik ko‘pincha boshi berk muammoga aylanadi: u davolanish haqini to‘lay olmaydi, ahvoli yomonlashadi, ishlash qiyinlashadi, oilaning yordamga ehtiyoji esa ortib boradi. Hatto pul yig‘ilganida ham bemor sifatli davolanish uchun qayerga murojaat qilishni har doim ham bilavermaydi. U asossiz tibbiy tavsiyalar, ortiqcha xarajatlar va amaliy yordamga aylanmaydigan va’dalarga duch kelishi mumkin.



Homiy oldida ham oson bo‘lmagan vazifa turadi. Pul so‘rab murojaat qilish ortida haqiqiy musibat ham, firibgarlik ham bo‘lishi mumkin. Ba’zan inson chindan davolanishga muhtoj bo‘lsa-da, olgan mablag‘ini qarzlar, oziq-ovqat yoki oilasining boshqa ehtiyojlariga sarflaydi. Pul tugaydi, kasallik esa qoladi.

Mablag‘ klinikaga yetib borgan taqdirda ham savollar qoladi: davolash to‘g‘ri tanlandimi, uning narxi asoslimi, bemor davolanishni oxirigacha oldimi va ahvoli yaxshilandimi? Inson boshqa bir insonning sog‘ayishi uchun xayriya qiladi, lekin ko‘pincha mablag‘ maqsadli ishlatilgani ham, natija olingani ham unga tasdiqlab berilmaydi.

«Isloh va Izzat» bu muammolarni qanday hal etadi ?

01

Ehtiyojni hujjatlar bilan tasdiqlaymiz.

Faqat hissiyotga ta’sir qiladigan hikoyaga asoslanib qaror chiqarmaymiz. Yordamni davolanishga chindan muhtoj va ko‘maksiz bunga imkoniyati yetmaydigan insonlarga yo‘naltirish uchun tibbiy ko‘rsatmalar hamda moliyaviy ahvolni tekshiramiz.

02

Pulni bemorning qo‘liga bermaymiz.

Yordam «Saba Darmon» klinikasining aniq tibbiy xizmatlari shaklida ko‘rsatiladi. Bemor davolanadi, mablag‘ esa uning erkin tasarrufiga berilmaydi va u tomonidan boshqa ehtiyojlarga sarflanishi mumkin emas.

03

Bemorni davolanish yo‘lini yolg‘iz izlashga majbur qilmaymiz.

Shifokorlar tashxisni, tibbiy aralashuv zaruratini, xavflarni va kutilayotgan samarani baholaydi. Bemor klinikada malakali yordam oladi va davolanish davomida qo‘llab-quvvatlanadi.

04

Sezilarli va uzoq muddatli samara beradigan yordamni tanlaymiz.

Dasturning ustuvor yo‘nalishi — organizmning muhim funksiyalarini, mustaqillik va hayot sifatini tiklaydigan davolash. Bemorlarni tanlashda inson hayotida aynan nima o‘zgarishini va bu natija qanchalik barqaror bo‘lishi mumkinligini baholaymiz.

05

Mablag‘lar sarfi va davolanishning yakunlanishini nazorat qilamiz.

Ajratilgan yordamni aniq tibbiy xizmatlarga yo‘naltiramiz, bemorni qo‘llab-quvvatlab boramiz va erishilgan o‘zgarishlarni tekshiramiz. Ishimiz to‘lovdan keyin ham — davolanish yakunlanib, natijasi baholanguniga qadar davom etadi.

06

Har chorakda homiylarga batafsil hisobot beramiz.

Hisobotlarda dasturning barcha asosiy ko‘rsatkichlarini ochib beramiz: qancha bemor yordam oldi, qanday davolash amalga oshirildi, qanday natijalarga erishildi, davolash qancha turdi va xarajatlar homiylar, klinika hamda bemorlar o‘rtasida qanday taqsimlandi? Homiylik mablag‘larining sarflanishi va dastur boshlanganidan buyon erishilgan jami natijalarni ham alohida ko‘rsatamiz.

> *Har bir bemorga ko‘rsatilgan yordam ortida katta mehnat turadi: hujjatlarni tekshirish, shifokorlarning qarori, davolashni tashkil etish va natijani nazorat qilish. Sizning ko‘magingiz natijasi aniq bo‘lgan haqiqiy yordamga aylanishi uchun bu ishni o‘z zimmamizga olamiz.*

Moliyaviy ehtiyojni qanday tekshiramiz

Dasturga qabul qilishdan oldin bemorning, zarur hollarda esa uning turmush o‘rtog‘ining ham moliyaviy ahvolini o‘rganamiz. Daromadlar, mol-mulk va notarial bitimlar haqidagi ma’lumotlarni tekshiramiz, tasdiqlovchi hujjatlar hamda mygov.uz portali ma’lumotlaridan foydalanamiz.

Bu nomuvofiqliklarni aniqlash va suiiste’mol xavfini kamaytirishga yordam beradi. Vazifamiz — ko‘maksiz inson zarur davolanishdan haqiqatan ham foydalana olmasligiga ishonch hosil qilish.

Davolash qanday moliyalashtiriladi?

Biz homiylar ko‘magi, «Saba Darmon» klinikasi hissasi va bemorning imkoniyatiga mos ulushini birlashtiramiz. Klinika tibbiy xizmatlarga chegirma beradi, bemorning ulushi esa uning moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu model homiylik mablag‘lari hisobiga ko‘rsatiladigan yordam hajmini oshiradi va oilaning moliyaviy yukini yengillashtiradi.

Nega yordamingiz hayotni uzoq muddatga o‘zgartiradi?

Muvaffaqiyatli davolanishning foydasi bemor shifoxonadan chiqqanidan keyin ham davom etadi. Eshitishning tiklanishi bolaga yaxshiroq o‘qish va muloqot qilish imkonini beradi. Erkin nafas olish va og‘riqdan xalos bo‘lish kundalik yumushlar hamda ishga qaytishga yordam beradi.

Ginekologik kasalliklarda ko‘rsatilgan yordam ayolni og‘riq va boshqa cheklovlardan xalos etishi, salomatligi hamda faol hayot kechirish imkoniyatini saqlab qolishi mumkin. Urologik davolash normal siyishni tiklash, doimiy noqulaylikdan qutulish va mustaqillikni qaytarishga yordam beradi. Og‘ir semizlikda bariatrik operatsiya, keyingi tibbiy kuzatuv va odatlarni o‘zgartirish bilan birgalikda, vaznni uzoq muddatga kamaytirish, yengilroq harakatlanish hamda hamroh kasalliklarning hayotga ta’sirini pasaytirishga ko‘maklashishi mumkin.

Dasturning qadri aynan shunday o‘zgarishlarda: davolash natijasi insonga ko‘p yillar, ba’zan esa umrining oxirigacha foyda keltirishi mumkin. Bu natija ishlash, yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish va doimiy yordamga kamroq qaram bo‘lishga imkon beradi.

Shu sababli asosli va barqaror natija beradigan davolashga yo‘naltirilgan har bir homiylik so‘mi inson hayotiga kiritilgan uzoq muddatli sarmoyaga aylanadi. Biz sizning ko‘magingiz insonga uzoq yillar foyda keltirishi uchun ishlaymiz.



Kelajak haqidagi qarashimiz

Biz inson faqat davolanish haqini to‘lay olmagani uchun sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va umididan ayrilmaydigan jamiyatga intilamiz.

Missiyamiz

«Isloh va Izzat» missiyasi — aholining moddiy jihatdan eng zaif qatlamlariga salomatlik, organizm funksiyalari, to‘laqonli hayot kechirish imkoniyati va insoniy qadr-qimmatni tiklaydigan tibbiy davolanishdan foydalanish imkonini yaratish.

Isloh va Izzat

“

Kasallik insonni kuchdan qoldirishi mumkin, ammo uni yordam olish huquqidan mahrum qilmasligi kerak.

«Isloh va Izzat» aynan shu maqsadda tashkil etilgan.



Xondamir Nusrat,
«Isloh va Izzat» dasturi konsepsiyasi muallifi

Isloh va Izzat

“

Mas’uliyatli va vijdonli insonlar jamiyatida hech kim kasallik yoki boshiga tushgan kulfat sababli yashab qolish uchun yolg‘iz kurashishga majbur bo‘lmasligi kerak



Xondamir Nusrat,

«Isloh va Izzat» dasturi konsepsiyasi muallifi



Xulosa

«Isloh va Izzat» — homiylik mablag‘lari yuqori samara bilan ishlaydigan, davolanishning yakuniga yetkazilishi, organizm funksiyalarining tiklanishi va hayotga uzoq muddatli ijobiy ta’sirni ta’minlaydigan barqaror model.

Biz bilan bog‘lanish:

Sharofiddin Husniddinov

Telefon +998 93 575 55 06

Telegram @SharofiddinHusniddinov